



Bir gʻazali tahlili: "Tishni sinkim dedilar..."

Rayhonoy Yangiboyeva

UrDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Navoiy hazratlarining "Navodir ush shabob" devonidan oʻrin olgan orifona gʻazali tahlilga tortilgan. Shoirning chuqur falsafiy mazmunni hayotiy voqea asosida aks ettirib, tasavvufiy ohang bilan muzayyan qila olish mahorati ochib berilgan. Izoh talab soʻzlar maʼnosi sharh asnosida yotirib berishga harakat qilingan.

Kalit soʻzlar: raxna, dandona, rioyat, sin, zulam, ajal, gʻam.

Abstract: In this article, the orifona ghazal from the "Navodir ush shabab" divan of His Holiness Navoi is analyzed. The poet's ability to reflect the deep philosophical content based on a life event and to express it with a mystical tone is revealed. An attempt was made to explain the meaning of the required words in the commentary.

Key words: rahna, wise, respect, sin, oppression, death, grief.

Аннотация: В данной статье анализируется газель орифона из дивана «Наводир уш шабаб» Его Святейшества Навои. Раскрывается способность поэта отражать глубокое философское содержание, основанное на жизненном событии, и выражать его мистическим тоном. Сделана попытка объяснить значение требуемых слов в комментарии.



Ключевые слова: рахна, мудрый, уважение, грех, угнетение, смерть, горе.

Adabiy asarlar o'z ichiga inson va uning hislarini qamrab olar ekan, hamma zamonlarda ham u ezgulikka xizmat qilib kelgan. Mumtoz adabiyotda qalamga olinadigan asosiy mavzu ishq bo'lsa, keyingi o'rinda dunyo va undagi havaslar, saodatga eltuvchi amallar, nafsni poklash kabi masalalar turadi. Navoiyning orifona g'azallari ham, aynan, asl inson o'laroq hayot kechirishni, har soniyani g'animat bilib, savobli ishlarni beminnat qilishni, o'tkinchi istaklarga bog'lanib qolmaslikni ko'zda tutadi. Shoirning "Navodir ush shabob" devonidan o'rin olgan 488-g'azali bunga misol bo'la oladi.

Tishlarimdin iki dandonaki charx ayladi kam,

Raxnalar bo'ldi ajal kirgali jon chiqqali ham.

Hajman 9 baytdan tarkib topib, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan mazkur g'azal maqtasi, charxdan shikoyat bilan boshlanadi. Unga ko'ra charx zulmidan shoirning ikki dandona¹si sinib, ajal kirishi va jon chiqishi uchun yo'lakcha vazifasini o'taydi. Tashbeh san'atining betakror namunasi keltirilgan.

Har bino raxnasini tutsa bo'lur turfa bukim,

Mumkin ermas bu iki raxnani qilmoq muhkam.

Har qanday binoning darz ketgan joyini tuzatsa bo'ladi, ammo Alloh bunyod etgan bu bino raxnasini qayta to'ldirib bo'lmaydi.

Turfaroq buki necha qilsa rioyat to'kulur,

Bu fano raxnasining ikki yonidin har dam.

Ajabki, qancha asragan sari bu o'tkinchi bo'shliqlar yoni yana to'kilib, nurab bormoqda.

¹ Tish, Navoiy asarlari lug'ati. (Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). - Toshkent: 1972, 1-juz.



Demakim, bo‘ldi ajal kirmak uchun raxnavu bas,

Angacha yo‘l budurur kirgali ming turluk g‘am.

Buni faqat ajal kirishi uchungina ochilgan ochilgan yo‘l deb o‘ylama, balki ungacha
ning turli g‘

Yuz sitamdur manga tish raxnalaridin, go‘yo,

Tishni sinkim dedilar, bor emish ul sini sitam.

Yuqoridagi qo‘shmisrada iyhom san’atidan ustamonlik bilan foydalangan shoir,
tishning sinishi (tushishi) cheksiz dard bag‘ishlagani bois uni arablar sin² deyishi haqidagi
fikrlarni keltirib, o‘quvchiga cheksiz hayrat va zavq ulashadi.

Yo‘qki tish sini sitam bo‘ldiyu bas, ko‘zda dog‘i

Qolmadi nuri ani dog‘i degil ayni adam.

Tishning yo‘qligi, tishog‘riq paydo qilgani yetmaganidek, ko‘zdan nur ham ketib,
borliq go‘yo yo‘qlikka chulg‘andi. Mazkur baytdagi iyhom san’ati, insonni yanada
chuqurroq mushohada qilishga undaydi. Ya’ni yo‘qotilgan tishimning o‘rni chunon
og‘riydiki, ko‘z nurdan mosuvo bo‘lganini sezmadi. Bu xuddi yo‘qlik olami kabidir.
Ikkinchi ma’nosi esa, yo‘qlikning ko‘zi demakdir. Ayn-baytning ochqichi sanalib, arabcha
ko‘z degan ma’noni anglatadi.

Tish iki raxnasidin hasratu g‘am dudi chiqib,

Tutti go‘yo ko‘z iki ko‘zgusini zangi zulam.

Yo‘q-yo‘q aslida ko‘zdan nur ketmadi, balki raxnalardan chiqayotgan oh dudi
shunchalik qora tuman taratdiki, ko‘z pardalarini ham qoplab oldi. Natijada, qahramon

² Arabcha sinun- -سنّtish.



koʻzini koʻrish baxtidan mosuvo boʻldi deb oʻyladi. Ushbu baytlarda mubolagʻa sanʻatidan foydalanilgan boʻlib, u tashbeh bilan yana-da ohoriy maʼno ifodalay olgan.

Tiyralik birla shikastiki tishu koʻz yoʻlidin,

Manga yuzlandi, demak boʻlmas ani koʻrmak ham.

Men qorongʻulik va ogʻriqqa tish-u koʻz sababli duchor boʻldim, endi bu koʻzlar yoʻlni koʻradi deb ham boʻlmaydi. Bir qarashda juda joʻn yozilganday koʻringan bu misralar mazmuni maqta bilan hamohang boʻlib, koʻz va til orqali inson orttiriladigan gunohlarga ishora seziladi. Koʻz mumtoz adabiyotda shunday muborak timsolki, u ishq javhari, oshiqning koʻnglidagi tugʻyonning zuhuri sanaladi. U bilan qilinadigan gunohlar jazosi qanchalik ogʻir boʻlsa, aks holatda savob ham ziyoda qilib berilishi zikr etilgan. Jumladan, hadisi sharifda aytilganidek:

“Ikki koʻzni (koʻz egalarini) doʻzax oʻti kuydirmaydi. Biri Allohdan qoʻrqib yosh toʻkkan koʻzni, ikkinchisi Vatan himoyasida uxlamay bedor boʻlgan koʻzni”

Boʻl, Navoiy, safar ohangiga omodavu chust

Kim, bular barcha ajal peshravidur fafham.

Navoiy, safarga hozirlik koʻrib belni bogʻlabin, zeri bu ikki aʼzo ajal yoʻlboshchisi ekanligi yaxshi bilasan. Bu yerda, ajal soʻzi oʻquvchini sergaklantirish, diqqatini jalb qilishga xizmat qiladi. "Har ne kelsa boshingga tilingdan kelar",-degan hikmat bejiz emas, albatta. Aynan, til ajalga yetaklovchi rahnamodir. Chunki u koʻz bilan koʻrilgan sirlarni oshkor qildi. Koʻz esa koʻrish mumkin boʻlmagan hodisotlarni taʼqib etdi. Shu boisdan ijodkor bu juftlikni Alloh buyurgan ishlarga sarf qilishni eslatma oʻlaroq bayon etadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat rivojida insonning ahamiyati nechogʻlik ulugʻ boʻlsa, inson deb atalmish tabiat gultojining nomiga mos boʻlib umr kechirishida zaboni-yu nazarining oʻrni ham benihoya kattadir. Avloniy "Guliston bit-turkiy" da taʼkidlaganidek,



inson har bir narsaga ibrat ko‘zi bilan boqmog‘i lozim. Shundagina u faqat boriga emas, tushgan tishiga ham shukr qilishni, qadariga rozi bo‘lib baxtni his qilishni o‘rganadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Navodir ush shabob. 4-jild // To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013 bet
2. Navoiy asarlari lug‘ati. (Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov) - Toshkent: 1972.
3. Shayx Muqammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz - Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.
4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2007. 18-bet.
5. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent.: Movarounnahr –O‘zbekiston
6. Mantiqut-tayr (nasriy bayon) Farididdin Attor, www.ziyouz.com kutubxonasi